# BUXORO VILOYATI BUXORO TUMANI HOKIMINING
# QARORI

200400, Gala-osiyo shahri, Buyuk ipak yo'li shoh ko'chasi, 54-uy, tel: (365) 54-25-762, 54-23-215, e-mail:buxoro.t@exat.uz

2022 - yil 22 - dekabr 539-2-32-Q/22 Buxoro tuman hokimligi

## O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq tumandagi avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalarda Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarni hisobini yuritish ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va uni sifatini yaxshilash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 22-iyuldagi 259-45-sonli “Harbiy-transport majburiyati to‘g‘risida”gi farmoyishiga muvofiq, tumandagi avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalarda Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarni hisobini yuritish ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va uni sifatini yaxshilash maqsadida hamda tuman mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limining 2022 yil 24 noyabrdagi 934-sonli xatini inobatga olib,

**Q A R O R Q I L A M A N:**

1. Tuman mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limining 2022 yil 24 noyabrdagi 934-sonli xati inobatga olinsin.

2. Tuman mudofaa ishlari bo‘limining tumanda mavjud Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalardagi avtortansport vositalari va boshqa texnikalarni hisobini yuritish ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va uni sifatini yaxshilash maqsadida 2023 yil davomida tekshirish jadvali ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman mudofaa ishlari bo‘limining tumanda mavjud Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalardagi avtortansport vositalari va boshqa texnikalarni hisobini yuritilishini o‘rganish ishlari belgilangan tartibda amalga oshirilsin.

4. Tuman mudofaa ishlari bo‘limining tumanda mavjud Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalari rahbarlariga:

-texnikalarni harbiy hisobini yuritilishi va texnik xolatiga e’tibor qaratish;

-texnikalarni harbiy xisobini yuritilishi va texnik xolati saqlash ishlari uchun ma’sul xodim tayinlab ularni mudofaa ishlari bo‘limi bilan uzluksiz aloqada bo‘lishini, talab etilgan ma’lumot, hisobotlari taqdim etilishi va mashg‘ulotlarga ishtirok etilishini ta’minlash;

-ehtiyot qismlar avtomobil zaxira asbob-uskunalari va yoqilg‘i quyish vositalari uchun javobgar shaxslar ish faoliyati ustidan doimiy nazorat qilib borish hamda texnikalarni doimiy jangovor shayligi ta’minlash;

-O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Harbiy-transport majburiyati to‘g‘risida”gi farmoyishiga muvofik tuman mudofaa ishlari bo‘limning tumanda mavjud Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot va muassasalarda Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarning sozligi, sifatliligi va zaxiradagi ehtiyot qismlari to‘liqligini ta’minlash topshirilsin.

5. Harbiy ro‘yxatga olish tadbirlarini bajarish jarayonida korxona, tashkilot, muassasa jumladan ta’lim muassasalari ma’muriyatlari mudofaa ishlari bo‘lim tomonidan harbiy hisobni tekshiruv jarayonida ushbu qarorning 1-ilovasidagi jadval asosida ko‘rsatilgan muddatlarda harbiy hisobga oid barcha xujjatlar taqdim etish majburligi belgilansin.

6. Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarni uni nazorat qilish tuman mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan amalga oshirilsin.

7. Tumandagi korxona, tashkilot, muassasalarga hamda fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasi 1996 yil 22 iyul kunidagi “Harbiy-transport majburiyati to‘g‘risida”gi 259-45-sonli Farmoyishi talablarini sifatli va samarali bajarish to‘la to‘kis amalga oshirish yuklatilsin.

8. Mazkur qaror ijrosining nazorati tuman hokimining yoshlar siyosati, ijtimoiy rivojlantirish va ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari S.Hamroyev zimmasiga yuklatilsin.

**Tuman hokimi** **X.Q.JURAYEV**

Buxoro tuman hokimining
2022 yil 22 dekabrdagi
539-2-32-Q/22-son qaroriga
1-ilova

# Tumandagi avtotransport vositasiga ega korxona, tashkilot, muassasalarda Qurolli Kuchlarga yetkazishga ajratilgan avtotransport vositalari va boshqa texnikalarni hisobini yuritish ishlari ustidan tizimli nazorat o‘rnatish va uni sifatini yaxshilash maqsadida 2023 yil davomida tekshirish

## JADVALI

| № | Korxona tashkilot va muassasalar nomi | Tekshiruv o‘tkazish muddati |
|---|---|---|
| 1. | Buxoro tuman 47 son XKMK MChJ | 18.02.2023-yil |
| 2. | Buxoro viloyat Hududgaz | 08.03.2023-yil |
| 3. | Oq yul MChJ | 15.05.2023-yil |
| 4. | Uzparavtotrans AK-2 | 10.06.2023-yil |
| 5. | Buxoro tuman yo‘llardan foydalanish UK | 09.08.2023-yil |
| 6. | Baken kurilish montaj xk | 05.09.2023-yil |
| 7. | Madadkor xk | 03.11.2023-yil |
| 8. | Buxorodavsuvmaxsuspudrat DUK | 09.12.2023-yil |